TA’LIM JARAYONIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Uralova Yulduz Sayipnazar qizi,
Xalqaro innavatsion universiteti
Pedagogika fakulteti
1-bosqich magistranti
E-mail: uralovayulduz607@gmail.com

Annotatsiya.*Ushbu maqolada budungi kunda ta’lim jarayonida foydali bo’lgan interfaol metodlar, ularning samaradorligi haqida qisqacha ma’lumotlar keltirilgan.Bundan tashqari o’quv jarayonida qo’llash mumkun bo’lgan bir nechta metodlar va ularning afzalliklari haqida fikr yuritilgan. Xususan,o’quvchilarning mustaqil fikrlash, o’z-o’zini nazorat qilish, ijtimoiy va axloqiy ko’nikmalarini rivojlantirishda interfaol metodlarning o’rni alohida ta’kidlanadi.*

Kalit so’zlar:*Ta’lim jarayoni, interfaol metodlar, pedagogik texnalogiya, shaxsga yo’naltirilgan ta’lim, hamkorlikda o’qitish, aqliy hujum,klaster.*

Abstract.*This article provides brief information about interactive methods that are useful in the educational process today, their effectiveness. In addition, several methods that can be used in the educational process and their advantages are discussed. In particular, the role of interactive methods in developing students' independent thinking, self-control, social and moral skills is emphasized.*

Keywords: *Educational process, interactive methods, pedagogical technology, person-centered learning, collaborative learning, brainstorming, cluster.*

Аннотация.*В данной статье дается краткая информация об интерактивных методах, используемых в современном образовательном процессе, об их эффективности. Кроме того, рассматриваются некоторые методы, которые могут быть использованы в образовательном процессе, и их преимущества. В частности, подчеркивается роль интерактивных методов в развитии самостоятельного мышления, самоконтроля, социальных и нравственных навыков учащихся.*

Ключевые слова: *Образовательный процесс, интерактивные методы, педагогические технологии, личностно-ориентированное обучение, совместное обучение, мозговой штурм, кластер.*

KIRISH

Zamonaviy ta’lim tizimida o’quv jarayonini samarali tashkil etish, o’quvchilarning mustaqil fikrlashini, ijodkorligini va faolligini oshirish asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Shu boisdan interfaol metodlardan foydalanish bugungi kunda pedagogikaning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Interfaol metodlar o’qituvchi va o’quvchi o’rtasidagi ikki tomonlama faol muloqotni yo’lga qo’yadi, dars jarayonini jonlantiradi hamda mavzuni yanada mustahkamlaydi.Ta’limni jarayonini interfaollashtirish avvalo o’quvchi shaxsini jarayonning markaziga qo’yadi. Bu o’quvchining darsda ishtirok etish mativatsiyasini kuchaytiradi, savol berish, fikr bildirish,muammolarga ijodiy yechim topish ko’nikmalarini shakllantirishda ham muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi glaballashuv sharoitida ta’limning yuqori samaradorligini ta’minlash, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash, zamonaviy pedagogik

texnalogiyalarni joriy etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir.Shunday ekan, dars jarayonida "Aqliy hujum", "Klaster", " Bahs-munozara", "Bumerang" kabi interfaol metodlarni o'rinli qo'llash o'quvchilar faoliyatini hamda darsga bo'lgan qiziqishini yanada oshiradi.

"Interfaol" tushunchasi ingliz tilida "interact" (rus tilida "interaktiv") ifodalanib lug'aviy nuqtai nazardan "inter" -o'zaro , ikki taraflama, "act" – harakat qilmoq ish ko'rmoq kabi ma'nolarni anglatadi…[4]

Interfaol metod -… ta'lim jarayonida o'quvchilar va o'qituvchi o'rtasidagi muloqotni oshirish orqali o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi…[4]

Interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilarni shaxsiy fikrlash, mulohaza qilish, xulosa chiqarish, o'z shaxsiy fikrini bayon eta olish va uni qatiy himoya qila olish,kabi jihatlarini yanada rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

Bugungi kunda foydalinilayotgan metodlar juda ko'p ulardan darsning mavzusiga qarab foydalanishimiz mumkin. Bu albatta dars jarayonini yanada qiziqarli qilish bilan bir vaqtda dars mavzusi o'quvchilar xotirasida yana ham mustahkamroq o'rnashishini ta'minlaydi.Quida interfaol metodlardan bir nechta na'muna ko'rishimiz mumkin

Aqliy hujum – bu aniq belgilab berilgan muammolarni hal qilish maqsadida o'rganuvchi guruhlar tomonidan g'oyalarni yaratish uchun foydalanadigan usul hisoblanadi. Mazkur metod yordamida dars jarayonida biror muammo bo'yicha ta'lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to'planadi va ular yordamida ma'lum bir yechimga kelinadi. Aqliy hujum metodining yozma va og'zaki shakllari mavjud bo'lib, og'zaki shaklda pedagog tomonidan berilgan savolga o'quvchilarning har biri o'z

fikrini ogʻzaki bildiradi. Oʼquvchilar oʻz javoblarini aniq va Lunda tarzda bayon etadilar. Ushbu metod toʻgʻri va ijobiy qoʻllanisa, oʻquvchini erkin, ijodiy fikrlashga oʻrgatadi.

Xulosa oʻrnida shuni aytishimiz mumkinki, oʻquvchilar oʻrtasida hamkorlikda ishlash, ijodiy tafakkurini rivojlantirishda "aqliy hujum" metodini qoʼllash dars jarayonida oʻquvchilar oʻzlarining fikrlarini erkin bildira olishi va atrofida bildirilayotgan fikrlarni hurmat qilishni oʼrgamishlari uchun eng yaxshi tanlov deyishimiz mumkin.

Klaster metodi-bu ta'lim oluvchilarda erkin fikrlash va aniq fikr bildirish imkoniyatini yaratuvchi didaktik strategiya hisoblanadi.Mazkur metod muayyan mavzu bo'yicha g'oyalar o'rtasidagi aloqalarni aniqlashga yordam beradi. Klaster metodi odatda mavzuning yaxshi o'zlashtirilishini ta'minlash uchun qo'llaniladi.

Klaster metodining asosiy jihatlari:

- **Erkin fikrlash:** Oʻquvchilar oʻz fikrlarini bemalol bayon qilish uchun sharoit yaratadi.
- **Miya faoliyatiga asoslangan:** Miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bogʻliq boʻlib, turli gʻoyalar oʻrtasidagi aloqalarni aniqlashga qaratilgan.
- **Qayta-qayta takrorlash:** Muayyan mavzuni chuqur va puxta oʻzlashtirishga yordam beradi.
- **Qat'iy obektga yoʻnaltirilmagan:** Bu metod aniq bir obektga yoʻnaltirilmagan boʻlib, fikrlashni kengaytiradi.

Bahs-munozara metodi bu - biror mavzu bo'yicha bilim oluvchilar bilan o'zaro bahs-munozara va fikr almashuv tarzida o'tkaziladigan metoddir.

Qo'llanilishi:

Muammoli savol beriladi

Turli fikrlar bildiriladi

Fikr-mulohazalar tinglanadi

Javoblar tahlil qilinadi

Aniq va maqbul yechim tanlab olinadi

Afzalliklari:

O’quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi

O’quvchilar o’z fikrinining to’g’ri ekanligini isbotlashga harakat qiladi

O’quvchilarda eshitish qobilyati rivojlanishiga yordam beradi.

Bumerang metodi bu – tanqidiy fikrlash, mantiqni shakllantirish, xotirani mustahkamlash, g’oyalarni, dalillarni yozma va og’zaki shakilda bayon qilish ko’nikmalarini rivojlantiradi.

Ta’lim bilan bir qatorda mazkur metod tarbiyaviy xarakterdagi vazifalarni ham amalga oshirishga yordam beradi;

-jamoa bilan ishlash mahorati;

-xushmuomalalik;

-ko’nikuvchanlik;

-o’zgalar fikriga hurmat;

-faollik;

-rahbarlik sifatlarini shakllantirish;

-ishga ijodiy yondashish;

-o’z faoliyatining samarali bo’lishiga qiziqish;

-o’zini xolis baholash.

Ushbu metod – o’quvchi talabalarni dars jarayonida darsdan tashqari turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, o’rganilgan matereallarni yodida saqlash, so’zlab bera olish hamda dars davomida barcha o’quvchi talabalarni baholay olish imkoniyatlarini yaratadi.

Interfaol metodlardan foydalanishning afzalliklari;

- dars samaradorligi oshadi

- o’quvchilarning faolligi kuchayadi
- bilimlar mustahkam o’zlashtiriladi
- o’quvchilar fikrlashi kengayadi
- o’quvchi va o’qituvchi o’rtasida hamkorlik shakllanadi.

Interfaol metodlardan foydalanishda o’qituvchining roli

- Darsning maqsadini aniq belgilashi
- Guruhlarni to’ri shakllantirishi
- O’quvchilarni rag’batlantirishi
- Vaqtni taqsimlay olishi
- Metodlarni mavzuga va o’quvchilar yosh doirasiga mosini tanlay olishi
- Yakuniy xulosalarni umumlashtirib berishi kerak.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda ta’lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish zamonaviy pedagogikaning eng muhim talablaridan biridir. Interfaol metodlar o’quvchi va o’qituvchi o’rtasidagi muloqotni shakllantiribgina qolmay o’quvchilarga shaxsiy fikrlarini bayon eta olish va bu fikrini qatiy himoya qila olish kabi tomonlarni rivojlantiradi. Bundan tashqari interfaol metodlardan foydalanish darsni qiziqarli qilib, ijyimoiy, kommunikativ, tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi. Umuman olganda bu metodlar ta’lim mazmunini yanada boyitishga xizmat qiladi.Rivojlanib borayotgan ta’lim jarayonida ko’plab interfaol metodlardan foydalangan holda yoshlarimizni yanada bilimlarini boyitishimiz va mamlakatimiz uchun yetuk kadrlar tayyorlashga harakat qilmog’imiz zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. N.F. Saydalixodjayeva “Pedagogik texnologiyalar” moduli bo’yicha o’quv-uslubiy qo’llanma Toshkent - 2021;
2. S.I. Mirhayitova “Pedagogik texnologiya” o’quv-uslubiy qo’llanma Toshkent-2020;
3. A.R. Xodjaboyev, I.A. Xusanov, U.N Nishonaliyev “Kasbiy ta’lim metodologiyasi” o’quv qo’llanma;
4. “Ta’limda interfaol metodlardan foydalanishning afzalliklari” Ilmiy maqola/ Tuzuvchi/Guluzraxon Komiljonova
5. https://edu.profedu.uz/metodik_mahsulotlar
6. WWW.ziyonet.
7. https://arxiv.uz/uz/.